

## YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA MILLIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARNI AHAMIYATI

**Qo'chqarov Bahodir Abdullajonovich,**

*Turan International University Gumanitar fanlar va pedagogika fakulteti o'qituvchisi*

[bahodirnilufar73@gmail.com](mailto:bahodirnilufar73@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada “Devonu lug‘otit turk” asaridagi milliy qadriyatlarga xos hikmatlarning yuqori sinf o‘quvchilarida zamonaviy pedagogik kompetensiyalar orqali rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida kommunikativ, ijtimoiy va aksiologik kompetensiyalarni shakllantirishda Mahmud Koshg‘ariy hikmatlarining samaradorligi tajriba-sinov asosida yoritilgan. Natijalar milliy pedagogik merosni kompetensiyaviy ta’lim bilan integratsiya qilish muhimligini ko‘rsatdi.

**Kalit so‘zlar:** Mahmud Koshg‘ariy, “Devonu lug‘otit turk”, milliy qadriyatlar, pedagogik kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, aksiologik yondashuv, yuqori sinf o‘quvchilari, didaktik imkoniyatlar.

**Аннотация.** В данной статье проанализированы дидактические возможности мудрых изречений, отражающих национальные ценности в произведении «Девону лугатит турк», в развитии современных педагогических компетенций у учащихся старших классов. В ходе исследования на основе опытно-экспериментальной работы была раскрыта эффективность изречений Махмуд Кошгарий в формировании коммуникативных, социальных и аксиологических компетенций. Полученные результаты показали важность интеграции национального педагогического наследия с компетентностным образованием.

**Ключевые слова:** Махмуд Кошгарий, «Девону лугатит турк», национальные ценности, педагогическая компетенция, компетентностный подход, аксиологический подход, учащиеся старших классов, дидактические возможности.

**Abstract.** This article analyzes the didactic possibilities of the wise sayings reflecting national values in *Dīwān Lughāt al-Turk* in developing modern pedagogical competencies among senior school students. During the research, the effectiveness of the wise sayings of Mahmud Koshg‘ariy in forming communicative, social, and axiological competencies was revealed through experimental work. The results demonstrated the importance of integrating national pedagogical heritage with competency-based education.

**Keywords:** Mahmud Koshg‘ariy, *Dīwān Lughāt al-Turk*, national values, pedagogical competence, competency-based approach, axiological approach, senior school students, didactic opportunities.

**Kirish.** Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda zamonaviy pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish hamda ma’naviy-ma’rifiy tafakkurni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jahon ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning ustuvor yo‘nalishga aylanishi o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilim, balki mustaqil fikrlash, kommunikativ faollik, ijtimoiy moslashuvchanlik va axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, xalqning tarixiy-madaniy merosi, xususan, Mahmud Koshg‘ariyning ilmiy-adabiy qarashlari bugungi ta’lim tizimi uchun muhim pedagogik manba bo‘lib xizmat qiladi.

Mahmud Koshg'ariy tomonidan yaratilgan "Devonu lug'otit turk" nafaqat turkiy tillarning ilk ensiklopedik lug'ati, balki xalq pedagogikasi, axloqiy qarashlar, tarbiyaviy hikmatlar va milliy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan noyob manba hisoblanadi. Asarda uchraydigan maqollar, hikmatli iboralar va pand-nasihatlar insonni komillikka, ilm-ma'rifatga, mehnatsevarlikka, odob-axloqqa, do'stlik va hamjihatlikka undaydi. Mazkur pedagogik qarashlar bugungi zamonaviy ta'lim tamoyillari bilan hamohang bo'lib, o'quvchilarda muhim milliy pedagogik qadriyatlarga asoslangan kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatiga ega[4.15].

So'nggi yillarda kompetensiyaviy ta'limga oid ilmiy tadqiqotlarda o'quvchilarning kommunikativ, ijtimoiy, axborotiy va madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Biroq milliy pedagogik meros asosida ushbu kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlar yetarli darajada o'rganilmagan. Ayniqsa, Mahmud Koshg'ariy hikmatlarining zamonaviy pedagogik kompetensiyalar bilan integrativ aloqadorligini ochib berish ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi. Shu sababli mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi Mahmud Koshg'ariy hikmatlarining yuqori sinf o'quvchilarida zamonaviy pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlarini aniqlashdan iboratdir.

**Adabiyotlar sharhi.** Tadqiqot davomida kompetensiyaviy yondashuv, aksiologik yondashuv, integrativ ta'lim texnologiyasi va shaxsga yo'naltirilgan pedagogik tamoyillardan foydalanildi. Shuningdek, nazariy tahlil, qiyosiy o'rganish, pedagogik kuzatuv, anketa, suhbat va tajriba-sinov metodlari asosida o'quvchilarning kompetensiyalari rivojlanish darajasi o'rganildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- Mahmud Koshg'ariy hikmatlari ilk bor zamonaviy pedagogik kompetensiyalar tizimi bilan integrativ asosda tahlil qilindi.
- "Devonu lug'otit turk"dagi hikmatlarning kommunikativ, ijtimoiy va madaniy kompetensiyalarni - shakllantirishdagi didaktik imkoniyatlari aniqlashtirildi.
- Yuqori sinf o'quvchilarida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishning innovatsion modeli ishlab chiqildi.
- Mahmud Koshg'ariy hikmatlari asosida kompetensiyaviy dars texnologiyasi taklif etildi.

Tajriba-sinov natijalari matematik-statistik metodlar orqali ilmiy asoslandi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur ilmiy tadqiqotda bir necha metodologik yondashuvlar uyg'un holda qo'llanildi. Avvalo, kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda nazariy bilimni amaliy faoliyatga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratildi. Chunki zamonaviy pedagogika faqat ma'lumot berish bilan cheklanib qolmasdan, o'quvchining hayotiy faoliyatda mustaqil qaror qabul qilishi, muloqotga kirisha olishi va muammoli vaziyatlarni hal qila olish qobiliyatini ham rivojlantirishni talab etadi.

Aksiologik yondashuv esa milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishni nazarda tutadi. Mahmud Koshg'ariy hikmatlarida aks etgan insonparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, ilmga intilish kabi fazilatlar o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning empirik qismida yuqori sinf o'quvchilari ishtirokida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tadqiqot asosida Mahmud Koshg'ariy hikmatlari asosida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishning innovatsion modeli ishlab chiqildi. Ushbu model quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- maqsadli komponent; mazmuniy komponent; metodik komponent; diagnostik komponent; natijaviy komponent.

Modelning amaliy ahamiyati shundaki, undan umumta'lim maktablari, akademik litsey va pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida foydalanish mumkin.

Tadqiqotning tajriba-sinov ishlari Namangan shahridagi 74-umumiy o'rta ta'lim maktabi 11-sinf o'quvchilari o'rtasida olib borildi. Tadqiqotda jami 72 nafar o'quvchi ishtirok etdi

### **Tajriba-sinov modeli**

**1-bosqich** -Diagnostik bosqich. O'quvchilarning boshlang'ich kompetensiya darajasi aniqlandi.

**2-bosqich** -Tajriba bosqichi. Mahmud Koshg'ariy hikmatlari asosida: interfaol darslar; bahs-munozaralar; guruhli ishlanmalar; muammoli vaziyatlar tashkil qilindi.

**3-bosqich** -Yakuniy monitoring. Natijalar statistik jihatdan solishtirildi va samaradorlik darajasi aniqlandi.

Tajriba va nazorat guruhlari tashkil qilinib, tajriba guruhida Mahmud Koshg'ariy hikmatlari asosida maxsus integrativ darslar o'tkazildi[3.1250.] Darslarda interfaol metodlar, bahs-munozara, "Aqliy hujum", "Klaster", "FSMU", "Smart learning" texnologiyalari hamda muammoli vaziyatlardan foydalanildi[2.47.].

Masalan, "Ilm-hunar, ilmsizlik"[5.55.] mazmunidagi hikmat asosida o'quvchilar bilan ilmning inson hayotidagi o'rni haqida munozara tashkil etildi. Ushbu faoliyat orqali o'quvchilarda kommunikativ kompetensiya, mustaqil fikrlash va ijtimoiy faollik rivojlanganligi kuzatildi. Shuningdek, "Mehnatsevarlik va dangasalik", "Maslahatlashib ish ko'rish"[5.60.] mazmunidagi maqollar asosida jamoaviy ishlash kompetensiyasi shakllantirildi.Darslikda asardan berilgan maqollar asosida milliy qadriyatlarni singdirishda bir qator innnovation usullardan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalari.** Tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatdiki, Mahmud Koshg'ariy hikmatlari asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega bo'ldi. Tadqiqot boshida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi o'rtacha darajada bo'lgan bo'lsa, tajriba yakunida ushbu ko'rsatkich sezilarli darajada oshdi. Ayniqsa, o'quvchilarning mustaqil


fikr bildirishi, bahs-munozarada faol ishtirok etishi va o'z nuqtayi nazarini asoslab bera olish ko'nikmalarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.

Shuningdek, milliy qadriyatlarga munosabat ham ijobiy tomonga o'zgardi. O'quvchilar o'z xalqining tarixiy merosi va ma'naviy qadriyatlariga nisbatan qiziqish bildira boshladilar. Bu esa aksiologik kompetensiyaning rivojlanganligini ko'rsatadi. Tajriba davomida o'quvchilarning darsdagi faolligi ortib, jamoaviy ishlash ko'nikmalari ham shakllandi.

Foizlar asosida o'sish dinamikasi

No	Kompetensiya turi	Boshlang'ich	Yakuniy	O'sish
1	Kommunikativ kompetensiya	60%	74%	+14%
2	Ijtimoiy kompetensiya	57%	73%	+16%
3	Mustaqil fikrlash	54%	70%	+16%
4	Milliy qadriyatlarga munosabat	65%	78%	+13%

Bu natijalar Mahmud Koshg'ariy hikmatlari asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatadi.



Pedagogik kuzatuvlar natijasida quyidagi holatlar aniqlandi: o'quvchilarning kitobxonlikka qiziqishi oshdi; mustaqil tahlil qilish ko'nikmalari rivojlandi; milliy qadriyatlarga hurmat kuchaydi; muloqot madaniyati shakllandi; jamoada ishlash malakasi rivojlandi.

Tajriba va nazorat guruhlarini natijalari o'zaro taqqoslanganda tajriba guruhidagi o'quvchilarning milliy kompetensiyaviy qadriyatlar ko'rsatkichlari yuqoriroq ekanligi statistik jihatdan ham tasdiqlandi. Bu esa Mahmud Koshg'ariy hikmatlari asosidagi pedagogik metodikaning samarali ekanligini ko'rsatadi.

**Tahlil va muhokama.** Mahmud Koshg'ariy hikmatlarining zamonaviy pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati bir necha omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, asardagi hikmatlar tarbiyaviy xarakterga ega bo'lib, yosh avlodni ma'naviy barkamollikka undaydi. Ikkinchidan, hikmatlar qisqa va mazmunan chuqur bo'lgani

sababli o'quvchilarning tafakkurini faollashtiradi. Uchinchidan, ular o'quvchilarni mustaqil mushohada yuritishga, hayotiy xulosalar chiqarishga o'rgatadi.

Bugungi kunda kompetensiyaviy ta'limning asosiy maqsadi o'quvchini hayotga tayyorlashdan iborat. Shu jihatdan qaralganda, Mahmud Koshg'ariy hikmatlari o'quvchilarning nafaqat bilimini, balki hayotiy ko'nikmalarini ham rivojlantirish imkoniyatiga ega. Masalan, do'stlik, birlik, ilm, mehnat va odob haqidagi hikmatlar o'quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini mustahkamlaydi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Mahmud Koshg'ariyning Devonu lug'otit turk asaridagi hikmatlar yuqori sinf o'quvchilarida kommunikativ, ijtimoiy, madaniy va aksiologik kompetensiyalarni rivojlantirish, mustaqil fikrlash hamda milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantirishda samarali didaktik manba bo'lib, milliy pedagogik merosni zamonaviy kompetensiyaviy ta'lim bilan integratsiya qilish zarurligini tasdiqlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'limning adabiyot fan dasturlari. — Toshkent, 2015, 2018, 2021.
2. Ishmuhamedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. — Toshkent, 2017.
3. Kuchkarov B.A. Development of national pedagogical values in senior students through “dīwān lughāt al-turk” by mahmud koshg'ariy based on smart learning technologies//Ta'lim va taraqqiyot. Namangan. №2. 2026.
4. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. — Toshkent, 2019.
5. Boqijon To'xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova Adabiyot. O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua Birinchi nashr O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tasdiqlagan I qism “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent—2018